



**“TASDIQLAYMAN”**  
Statistika agentligi direktori

B. Begalov

«13» mart 2024- yil

## Statistika agentligi Axborot xizmati to‘g‘risida

### N I Z O M

#### I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Axborot xizmatining (keyingi o‘rinlarda Axborot xizmati deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Axborot xizmati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o‘rinlarda Statistika agentligi deb ataladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi.

3. Axborot xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari jumladan, “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4366-son qaroriga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Axborot xizmati o‘z faoliyatini Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

#### II. Axborot xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar Axborot xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi: